



SURKHAN OASIS – A SOURCE OF BAKSHISH AND THEATER ART: FROM HISTORY TO THE PRESENT

Nozima Nasriddinova

Lecturer, Department of Music, Termez State University

Doctor of Philosophy (PhD) in History

Email: nasriddinova@gmail.com

Termez, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Surkhan oasis, Sherobod school of dakhshi, bakhshi art, history of theater, national values, “Alpomish” epic, cultural heritage, Boysun Bahori, spiritual revival, folklore ethnography.

Received: 05.05.26

Accepted: 06.05.26

Published: 07.05.26

Abstract: This article analyzes the unique cultural and spiritual heritage of the Surkhan oasis, specifically the history of the Sherobod school of bakhshi (epic chanting) and the formation of theatrical art in the region. Based on archival data, the study examines the ideological pressures during the Soviet regime, the bans imposed on the “Alpomish” epic, and the struggles to preserve national identity. Furthermore, it highlights the revival of the art of bakhshi during the independence years and the significance of the International Festival of Bakhshi Art held in Termez in safeguarding national values and traditions.

SURXON VOHASI – BAXSHICHILIK VA TEATR SAN’ATI CHASHMASI: TARIXDAN BUGUNGACHA

Nozima Nasriddinova

Termez davlat universiteti Musiqa kafedrasi o‘qituvchisi

Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

e-mail: nasriddinova@gmail.com

Termez, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: Surxon vohasi, Sherobod dostonchilik maktabi, baxshichilik san’ati, teatr tarixi, milliy qadriyatlar, “Alpomish” dostoni, madaniy meros, Boysun bahori, ma’naviy tiklanish, folklor etnografiyasi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Surxon vohasining o‘ziga xos madaniy-ma’naviy merosi, xususan, Sherobod dostonchilik maktabi va hududda teatr san’atining shakllanish tarixi tahlil etiladi. Tadqiqotda sho‘ro mustabid tuzumi davridagi mafkuraviy

tazyiqlar, “Alpomish” dostoniga qo‘yilgan taqiqlar va milliy o‘zlikni saqlab qolish yo‘lidagi kurashlar arxiv ma’lumotlari asosida yoritilgan. Shuningdek, mustaqillik yillarida baxshichilik san’atining qayta tiklanishi va Termiz shahrida o‘tkazilayotgan Xalqaro baxshichilik festivalining milliy qadriyatlarini asrashdagi ahamiyati ochib beriladi.

СУРХОНСКИЙ ОАЗИС – ИСТОЧНИК БАКШИШСКОГО И ТЕАТРАЛЬНОГО ИСКУССТВА: ОТ ИСТОРИИ ДО НАШИХ ДНЕЙ

Нозима Насриддинова

Преподаватель кафедры музыки, Термезский государственный университет

доктор философии (PhD) по историческим наукам

э-почта: nasriddinova@gmail.com

Термез, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: оазис Сурхан, школа эпической поэзии Шерабад, искусство бахши, история театра, национальные ценности, эпос «Алпомиш», культурное наследие, источник Бойсун, духовное возрождение, фольклорная этнография.

Аннотация: В данной статье анализируется уникальное культурное и духовное наследие Сурхонского оазиса, в частности, шерабадская школа эпической поэзии и история формирования театрального искусства в регионе. Исследование охватывает идеологическое давление во время советской диктатуры, запреты на эпос «Алпомиш» и борьбу за сохранение национальной идентичности на основе архивных данных. Также раскрывается возрождение бахшишского искусства в годы независимости и значение Международного бахшишского фестиваля, проводимого в Термезе, для сохранения национальных ценностей.

Kirish. Insoniyat o‘zining ongli tarixi va yaratuvchanlik faoliyati mobaynida ham moddiy, ham ma’naviy boyliklarni sintez qilib boradi, bu esa muayyan hududning o‘ziga xos madaniy qiyofasini (cultural identity) shakllantiradi. O‘zbekistonning janubiy sarhadi hisoblangan Surxon vohasi nafaqat geografik joylashuvi, balki ko‘p ming yillik etnografik qatlamlari bilan Markaziy Osiyo sivilizatsiyasida alohida strategik nuqta hisoblanadi. Ma’lumki, har bir xalqning turmush tarzi, qadriyatlari va ma’naviyati vakuumda shakllanmaydi; bu jarayonda xalqning o‘tmish tarixi, ijtimoiy-siyosiy munosabatlari va diniy e’tiqodlari fundamental poydevor vazifasini o‘taydi [1].

Surxon vohasi aholisi asrlar davomida o'zining boy moddiy va ma'naviy merosiga sodiq qolgan, ayniqsa, etnomadaniy qadriyatlarni konservativ tarzda (asliyatini saqlagan holda) bugungi kungacha yetkazib kelgan noyob hududdir. Voha ahlining turmush tarzi, an'anaviy liboslari, xalq og'zaki ijodi va dostonchilik maktablari respublikaning boshqa hududlaridan sezilarli tarzda farqlanib, o'ziga xos "Surxon fenomenini" yuzaga keltirgan. Xususan, Sherobod dostonchilik maktabi o'zining ijro uslubi, bo'g'iq ovoz texnikasi va syujetlar ko'lami bilan o'zbek folklorining oltin fondidan joy olgan.

Biroq, XX asrning birinchi yarmida yuz bergan siyosiy transformatsiyalar –kommunistik mafkuraning tajovuzkorona kirib kelishi – ushbu azaliy qadriyatlar uchun jiddiy sinov davri bo'ldi. Sho'ro hukumati tomonidan tashkil etilgan "qizil choyxonalar" va "klublar" xalqning ming yillik milliy kodlariga tayanmaganligi, aksincha, begona mafkurani singdirishga xizmat qilganligi sababli dastlabki yillarda mahalliy aholi tomonidan keskin inkor etildi [2]. Masalan, 1927-yilda Termizda tashkil etilgan "Ozod Sharq" to'garagining atigi bir yil ichida tarqalib ketishi sun'iy madaniyatning hayotiy kuchga ega emasligini isbotlovchi tarixiy fakt hisoblanadi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi – Surxon vohasida teatr va baxshichilik san'atining shakllanish bosqichlarini sho'ro davridagi mafkuraviy tazyiqlar kontekstida tahlil qilish, "Alpomish" kabi qahramonlik eposlarining taqiqlanish sabablarini ilmiy asoslash hamda mustaqillik yillarida ushbu san'at turlarining ma'naviy tiklanish jarayonlarini yoritib berishdan iboratdir. Zero, jadid ma'rifatparvari Mahmudxo'ja Behbudiy ta'kidlaganidek, "Teatr – bu ibratxonadir"[3]. Bu ibora nafaqat sahna san'atiga, balki xalqning o'zligini namoyon etuvchi baxshichilik va folklor etnografiyasiga ham to'laqonli daxldordir.

Adabiyotlar sharhi. Ushbu tadqiqot jarayonida Surxon vohasi madaniy hayoti va baxshichilik san'ati evolyutsiyasini o'rganish uchun bir-birini to'ldiruvchi interdistiplinar (fanlararo) metodlar majmuasidan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosi quyidagi yo'nalishlarni qamrab oladi: tadqiqotda Surxondaryo viloyat davlat arxivi (313-fond, 39-fond, 454-fond kabi) materiallari asosida teatr va folklor jamoalarining shakllanish bosqichlari xronologik izchillikda o'rganildi. Sho'ro davridagi "madaniy oqartuv" siyosatining dastlabki natijalari (1927-yilgi "Ozod Sharq" to'garagi) va keyingi davrdagi (1935-yilgi okrug teatri) o'zgarishlar qiyosiy tahlil qilindi. Bu metod mafkuraviy bosim ostida milliy san'atning transformatsiyalashuv jarayonini aniqlash imkonini berdi.

Maqolada foydalanilgan faktlar bevosita birlamchi manbalarga – O'zbekiston KP Markaziy Qo'mitasi va sho'ro hukumatining ideologik masalalarga oid qarorlari (1932, 1946, 1951, 1952-yillar) hamda "Qizil O'zbekiston", "Pravda Vostoka" gazetalari materiallariga tayanadi.

Hujjatlardagi ko'rsatmalar va ularning amaliyotdagi in'ikosi (masalan, "Alpomish" dostonining taqiqlanishi) o'rtasidagi bog'liqlik "content-analysis" (matn mazmuni tahlili) usuli orqali yoritildi [4].

Sherobod dostonchilik maktabining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishda mashhur folklorshunos olimlar (H. Zarif, M. Afzalov, M. Alaviya) tomonidan qayd etilgan ekspeditsiya materiallari va doston variantlaridan foydalanildi. Baxshilarning ustozo-shogirdlik an'analari (Sherna baxshi, Mardonqul Avliyoqul o'g'li va boshqalar) "repertuar tahlili" metodi yordamida ko'rib chiqildi.

Sho'ro davri matbuoti va rasmiy hujjatlarida qo'llanilgan "sovetcha turmush tarsi", "milliy reaksionizm", "mafkuraviy zararli" kabi tushunchalarning siyosiy mazmuni germeneytik (tahliliy talqin) usulida ochib berildi. Bu orqali o'sha davr madaniy muhitining diskursiv manzarasi tiklandi.

Surxondaryo hududidagi klublar, kutubxonalar va badiiy havaskorlik to'garaklarining miqdoriy ko'rsatkichlari dinamikasi o'rganildi. Mustaqillik yillarida o'tkazilgan "Boysun bahori" va "Xalqaro baxshichilik festivali" natijalari madaniy merosni asrashning zamonaviy modeli sifatida sotsiokultural jihatdan baholandi [5].

Muhokama va natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, 1920-yillarning o'rtalarida o'tkazilgan "Madaniy inqilob" tadbirlari mahalliy sotsiumning ichki ehtiyojlaridan kelib chiqmagan. 1927-yilda Termiz shahrida tashkil etilgan "Ozod Sharq" badiiy havaskorlik to'garagi hujjatlari tahlil qilinganda, jamoaning 6 nafar a'zosidan faqat 2 nafari (mahalliy o'zbeklar) ekanligi, qolganlari esa hududga xizmat safari bilan kelgan boshqa millat vakillari ekanligi aniqlandi. Mazkur to'garakning repertuari mahalliy xalqning diniy va milliy qarashlariga zid ravishda faqat sho'ro targ'ibotiga yo'naltirilgani sababli, u mahalliy aholi orasida ijtimoiy rezonans keltirib chiqara olmadi va 1928-yilda o'z faoliyatini butunlay to'xtatdi. Bu natija sun'iy ravishda, yuqoridan turib tiqishtirilgan "madaniyat"ning yashovchanlik koeffitsienti pastligini isbotlaydi.

1930-yillarga kelib, VKP(b) Markaziy Qo'mitasining "Qishloqlarda madaniy ishlarni tubdan yaxshilash" haqidagi direktivalari natijasida vohaning chekka tumanlarida ham madaniy ochoqlar shakllana boshladi. Arxiv ma'lumotlariga ko'ra, Denovdagi "Kommuna" va Jarqo'rg'ondagi "Mehnat" badiiy to'garaklari mahalliy folklor elementlarini (lapar, o'lan, qiziqchilik) sho'ro mafkurasi qobig'iga o'rash orqali saqlab qolishga urindi. 1933-yilda Jarqo'rg'onda tashkil etilgan kolxoz-sovhoz teatri Surxondaryo teatr san'atining poydevori bo'ldi. Qori Madaminov va Afandixon Ismoilov kabi tashkilotchilarning sa'y-harakati bilan 1934-yilda

G'ulom Zafariyning "Halima" pyesasi sahnalashtirilishi – vohadagi ilk yirik professional qadam bo'ldi [6].

1935-yil 5-noyabrda Termizda rasman ish boshlagan ushbu teatrning ilk tarkibiga Q.To'laganov, X.Azimov, O.Fayozova, T.To'laev kabi iqtidorlar kiritildi. Teatr qoshida 12 kishilik milliy cholg'u ansambli va 4 kishilik raqs guruhi tuzilgani natijasida, u nafaqat siyosiy targ'ibot, balki milliy san'at markaziga aylana boshladi.

3. Sherobod dostonchilik maktabining epik ko'lami va uning hududiy ekspansiyasi

Tadqiqotning eng salmoqli natijalaridan biri – Sherobod dostonchilik maktabining o'ziga xosligini ilmiy jihatdan asoslashdir.

Ushbu maktab o'zining "ichki ovoz" (guttural) ijro uslubi bilan ajralib turadi. Shernazar Berdinazar o'g'li (Sherna baxshi) tomonidan asos solingan bu an'ana Mardonqul Avliyoqul o'g'li, Umir baxshi Safar o'g'li, Ermamat baxshi kabi yirik namoyandalar orqali davom etdi. Natijalar ko'rsatadiki, Sherobod maktabi faqat Surxon vohasi bilan cheklanib qolmay, Janubiy Tojikiston, Shimoliy Afg'oniston va Turkmanistonning ayrim hududlariga ham o'z ta'sirini o'tkazgan. Bu esa mazkur maktabning mintaqaviy "epik markaz" maqomiga ega ekanligini tasdiqlaydi.

1929-yilda folklorshunos Hodi Zarif tomonidan Sherna baxshidan «Alpomish» dostonining yozib olinganligi – o'zbek folklorshunosligida buyuk burilish yasagan tarixiy natijadir [7].

Urushdan keyingi yillarda sho'ro mafkurasi milliy qadriyatlarga nisbatan repressiv xarakter oldi. 1946-1951 yillardagi VKP(b) MK qarorlari san'atni "partiyaviylik" prinsiplariga to'liq bo'ysundirishni talab qildi. Ayniqsa, 1952-yilgi O'zbekiston Kompartiyasi X Plenumi milliy madaniyat uchun fojiviy yakunlandi.

Plenumda "Alpomish" dostoni "reaksion", "feodalizm qoldig'i", "islom dinini targ'ib qiluvchi" va "xalqqa yot" asar deb e'lon qilindi. Abdulla Abdunabiyev kabi mafkurachilarning dostonni qoralovchi chiqishlari oqibatida, baxshilarning ochiq davralarda "Alpomish"ni kuylashi qat'iy tanqiqlandi.

Ammo hatto eng qatag'on yillarda ham baxshilar ustozo-shogirdlik an'analari orqali dostonni "yashirin" (pinhona) tarzda o'rgatishni davom ettirishdi, bu esa milliy kodning saqlanib qolinishini ta'minladi. 1988-yilda tashkil etilgan "Boysun" folklor-etnografik ansambli faoliyati o'rganilganda, uning xalqaro miqyosdagi muvaffaqiyatlari (1995-yilda Polshada "Oltin bolg'acha" mukofoti va b.) voha madaniyatining "original" ekanligini isbotladi. 2001-yilda Boysun madaniy muhitining UNESCO tomonidan "Insoniyatning og'zaki va nomoddiy merosi durdonasi" deb tan olinishi – asriy kurashning mantiqiy yakuni bo'ldi.

2019-yildan boshlab Termiz shahrida o'tkazilayotgan xalqaro festivallar natijasida, dunyoning 70 dan ortiq davlatidan kelgan san'atshunoslar Surxon dostonchilik maktabini tan oldilar. Bu tadbir nafaqat madaniy, balki Surxon vohasining turistik salohiyatini oshiruvchi iqtisodiy omilga ham aylandi [8].

Hozirgi kunda Surxondaryo viloyat musiqali drama teatri va hududiy madaniyat markazlari faoliyati tahlil qilinganda, repertuarlarning 80% dan ortig'i milliy va tarixiy mavzularga yo'naltirilgani aniqlandi. Bu sho'ro davridagi 20-30% lik ko'rsatkichga nisbatan tubdan farq qiladi va madaniy suverenitetning to'liq tiklanganidan dalolat beradi.

Surxon vohasi madaniy hayotining XX asr va XXI asr boshlaridagi transformatsiyasini tahlil qilish jarayonida bir qator konseptual masalalar o'rtaga chiqadi. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, hududning madaniy taraqqiyoti bir tekisda kechmagan, balki keskin mafkuraviy qarama-qarshiliklar va "madaniy rezistentlik" (qarshilik ko'rsatish) sharoitida shakllangan.

Arxiv hujjatlari (masalan, 1927-yilgi "Ozod Sharq" to'garagi ma'lumotlari) shuni tasdiqlaydiki, sho'ro hokimiyati o'rnatgan ilk madaniy institutlar mahalliy aholining ijtimoiy-madaniy ehtiyojlarini hisobga olmagan. Bu jarayonni ilmiy tilda "madaniy imperialism" deb atash mumkin. Sho'ro hukumati o'zining siyosiy g'oyalarini yoyish uchun teatr va klublardan foydalanar ekan, Surxon vohasining asrlar davomida shakllangan islomiy va etnomadaniy qadriyatlarini "eskirgan sarqit" sifatida chetga surishga harakat qildi. Natijada, mahalliy aholi bu yangiliklarni qabul qilmadi, bu esa voha madaniyatining o'z qobig'iga o'ralishiga va milliy an'analarning "yashirin" (latent) shaklda rivojlanishiga olib keldi [3].

1930-yillarda professional teatrning shakllanishi munozarali jarayon bo'lib, u "shaklan milliy, mazmunan sotsialistik" tamoyiliga asoslangan edi. Jarqo'rg'on va Termizda teatr jamoalarining tuzilishi ijobiy holat bo'lsa-da, ularning repertuar siyosati qattiq senzura ostida edi. Munozara shuni ko'rsatadiki, teatr ijodkorlari (A. Ismoilov, Q. To'laganov va b.) o'rtasida o'ziga xos taktik kurash kechgan: ular sho'ro pyesalarini sahnalashtirish orqali "partiyaviylik" talabini bajarishgan bo'lsa, klassik asarlar ("Halima", "Farhod va Shirin") orqali xalqning milliy estetik ehtiyojini qondirishgan. Bu esa Surxon teatrining nafaqat mafkuraviy qurol, balki milliy san'atni saqlab qoluvchi "qalqon" vazifasini ham o'taganini ko'rsatadi.

Sherobod dostonchilik maktabining hududiy ko'lami va ijro uslubi uning Turkiy xalqlar folkloridagi o'rni beqiyos ekanligini tasdiqlaydi. Biroq, 1952-yildagi "Alpomish" dostoniga nisbatan qatag'on siyosati sho'ro mafkurasining eng katta xatolaridan biri sifatida baholanishi lozim. Munozara nuqtai nazaridan qaraganda, "Alpomish"ning taqiqlanishi shunchaki adabiy hodisa emas, balki "tarixiy xotirani o'chirish" (dehistorizatsiya) harakati edi. Sho'ro

mafkurachilari dostonni “feodalistik” deb atash orqali, uning zamiridagi vatanparvarlik va milliy birlik g‘oyalaridan qo‘rqanliklarini namoyon etishdi. Surxon baxshilarining bu tazyiqlar ostida ham dostonni saqlab qolishi – bu milliy ruhning siyosiy irodadan ustunligini ko‘rsatuvchi noyob sotsiokultural hodisadir [2].

2001-yilda Boysun madaniy muhitining UNESCO tomonidan e‘tirof etilishi voha madaniyati tarixidagi eng yuqori nuqtadir. Bu holat “local” (mahalliy) madaniyatning “global” (umumbashariy) ahamiyat kasb etishini isbotladi. Bugungi kunda Termizda o‘tkazilayotgan Xalqaro baxshichilik festivali sho‘ro davridagi barcha taqiqlarga munosib javob bo‘ldi. Festival shuni ko‘rsatdiki, baxshichilik san‘ati o‘tmish yodgorligi emas, balki hozirgi kunda ham “jonli” va rivojlanayotgan tizimdir.

Xulosa. XX asrning 20-yillarida sho‘ro hukumati tomonidan joriy etilgan “madaniy oqartuv” muassasalari (klublar, qizil choyxonalar) mahalliy aholining azaliy qadriyatlariga tayanmaganligi sababli dastlabki bosqichda inqirozga uchradi. Bu holat voha xalqining o‘z milliy-diniy kodlarini saqlab qolishga bo‘lgan tabiiy intilishini va begona mafkuraga nisbatan “madaniy immuniteti” shakllanganini ko‘rsatadi.

Surxon vohasida professional teatr va musiqa jamoalarining shakllanishi murakkab dialektik jarayon bo‘ldi. Bir tomondan, teatrlar sho‘ro targ‘ibot quroliga aylantirilgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, fidoyi san‘atkorlar milliy mumtoz asarlar orqali xalqning estetik tafakkurini asrab qoldilar. Jarqo‘rg‘on va Termiz teatrlarining shakllanish tarixi vohada professional san‘at muhiti erta shakllanganidan dalolat beradi.

Sherobod dostonchilik maktabi va “Alpomish” dostoni misolida ko‘rildiki, milliy epos xalqning tarixiy xotirasi sifatida eng og‘ir siyosiy qatag‘onlarga (1952-yilgi taqiqlar) bardosh bera oladi. Baxshichilik san‘atining “ustoz-shogirdlik” an‘anasi asosida saqlanishi, bugungi kunda ushbu merosning global miqyosdagi e‘tirofiga (UNESCO) zamin yaratdi.

Mustaqillik yillarida, xususan, “Boysun bahori” va “Xalqaro baxshichilik san‘ati festivali”ning tashkil etilishi Surxon vohasini nafaqat O‘zbekiston, balki jahon folkloristikasining markaziga aylantirdi. Bu jarayon moddiy va nomoddiy merosni asrash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi ekanligini tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Surxondaryo viloyat davlat arxivivi (SVDA): 313-fond, 1-ro‘yxat, 39-ish (Okrug madaniy-oqartuv ishlari hisoboti).
2. SVDA: 454-fond, 1-ro‘yxat, 18-ish (Termiz shahar ijroiya qo‘mitasining madaniyat sohasidagi qarorlari).

3. O‘zbekiston Respublikasi Milliy arxivivi (O‘zR MA): R-837 fond, 32-ro‘yxat, 115-ish (San’at ishlari boshqarmasining hisobotlari).
4. Abdunabiyev A. «Alpomish» dostoni haqida haqiqat (tarixiy-mafkuraviy tahlil). – Toshkent: Fan, 1952.
5. Zarif H. O‘zbek xalq og‘zaki she’riy ijodi. – Toshkent: O‘zfan, 1929.
6. Safarov O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. – Toshkent: Musiqa, 2010.
7. Qahhorov S. Surxondaryo teatri tarixi (1935-2010). – Termiz: Jayhun, 2011.
8. UNESCO. Convention for the Safeguarding of the Intangible Cultural Heritage. The Cultural Space of Boysun District, 2001.
9. Toshmatov S. O‘zbekistonda madaniy-maishiy qurilish (1924-1941 yy.). – Toshkent: O‘zbekiston, 1985.
10. «Qizil O‘zbekiston» gazetasi. 1952-yil 27-mart soni (VKP(b) X Plenum materiallari).
11. Jumaev L. Surxon vohasi baxshichilik san’ati: an’ana va zamonaviylik. – Toshkent: Sharq, 2018.